

O'zbekiston

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish guruhi (PIU)

**O'zbekistonda pandemiyaning oldini olish, oziq-ovqat tizimlari barqarorligi va
ekotizim salomatligi bo'yicha One Health**

EKOLOGIK VA IJTIMOY MAJBURIYATLAR REJASI (ESCP)

Baholash bosqichi versiyasi

2026-yil fevral

EKOLOGIK VA IJTIMOY MAJBURIYATLAR REJASI (ESCP)

1. O'zbekiston Respublikasi (Qabul qiluvchi) loyiha bo'yicha to'rtta amalga oshiruvchi idora (Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Ekologiya va iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy qo'mita hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi (IMV) (birgalikda — Loyihani amalga oshiruvchi idoralar)) orqali va IMV huzuridagi Loyihani amalga oshirish guruhi (PIU) ko'magida Markaziy Osiyoda Ko'p bosqichli dasturiy yondashuv dasturining 2-bosqichi sifatida "Pandemiyaning oldini olish, oziq-ovqat tizimlari barqarorligi va ekotizim salomatligi bo'yicha One Health" loyihasini (Loyiha) Grant bitimida belgilangan tartibda amalga oshiradi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (Bank) Pandemiyaning oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va javob berish bo'yicha trust jamg'armasi administratori sifatida Grant bitimida nazarda tutilganidek, Loyiha uchun moliyalashtirish ajratishga rozilik bildirgan.
2. Qabul qiluvchi Loyiha Ekologik va ijtimoiy standartlar (ESSlar) hamda ushbu Ekologik va ijtimoiy majburiyatlar rejasi (ESCP) talablariga muvofiq, Bank uchun maqbul tarzda amalga oshirilishini ta'minlaydi. ESCP Grant bitimining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur ESCPda boshqacha ta'rif berilmagan bo'lsa, unda bosh harf bilan yozilgan atamalar Grant bitimida ularga berilgan ma'nolarda qo'llanadi.
3. Yuqoridagilarni cheklamagan holda, mazkur ESCP Qabul qiluvchi tomonidan amalga oshirilishi yoki amalga oshirilishini ta'minlashi lozim bo'lgan muhim chora-tadbirlar va harakatlarni, zarur hollarda ularning tegishli muddatlarini, institutsional, shtat, o'qitish, monitoring va hisobot berish tartiblarini, shuningdek shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini belgilaydi. ESCP shuningdek Loyiha doirasida qabul qilinishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan ekologik va ijtimoiy (E&S) hujjatlarni ham belgilaydi; ularning barchasi ESSlarga muvofiq ravishda oldindan maslahatlashuvdan o'tkazilishi, oshkor qilinishi hamda mazmuni va shakli jihatidan Bank uchun maqbul bo'lishi kerak. Qabul qilingandan so'ng, mazkur E&S hujjatlari Bankning oldindan yozma roziligi bilan vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Grant bitimida nazarda tutilganidek, Qabul qiluvchi ESCPni amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun yetarli mablag'lar mavjud bo'lishini ta'minlaydi.
4. Bank va Qabul qiluvchi o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, ushbu ESCP zarurat tug'ilganda, Loyiha doirasidagi o'zgarishlar yoki kutilmagan holatlarni moslashuvchan boshqarishni aks ettirish, yoxud Loyiha samaradorligiga javoban qayta ko'rib chiqiladi. Bunday hollarda Bank va Qabul qiluvchi Bitimda ko'rsatilgan Qabul qiluvchining vakili yoki [Loyihani amalga oshirish guruhi direktori] tomonidan imzolangan xatlar almashinuvi orqali ESCPga tegishli o'zgartirishlar kiritishga kelishadilar. Qabul qiluvchi yangilangan ESCPni zudlik bilan oshkor qiladi.
5. Quyida keltirilgan "Amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rsatkichlari" bo'limi ushbu ESCPga muvofiq loyihani amalga oshirishni boshlashga tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida monitoring qilinadigan chora-tadbirlar va harakatlarni belgilaydi. Shunga qaramay, ushbu ESCPda nazarda tutilgan barcha chora-tadbirlar va harakatlar, ular mazkur bo'limda sanab o'tilgan yoki o'tilmaganidan qat'i nazar, quyidagi "Muddat" ustunida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDAT	MAS'UL TUZILMA
AMALGA OSHIRISH TARTIBLARI VA SALOHIYATNI OSHIRISH			
A	<p>TASHKILIY TUZILMA</p> <p>a. IMV huzuridagi mavjud Loyihani amalga oshirish guruhini (PIU) malakali xodimlar va Loyiha ekologik, ijtimoiy, sog'liqni saqlash va xavfsizlikka (E&S) oid xatarlar hamda ta'sirlarni boshqarish uchun zarur resurslar bilan saqlab turish. PIU tarkibidagi asosiy E&S xodimlari orasida bitta Ekologik va ijtimoiy rivojlanish bo'yicha mutaxassis bo'lishi lozim.</p> <p>b. Loyiha amalga oshirilishining birinchi yilida shtat ehtiyojlarini qayta ko'rib chiqish va zaruratga ko'ra qisqa muddatli xodimlar/maslahatchilarni (masalan, bioxavfsizlik va tibbiy chiqindilarni boshqarish bo'yicha ekspertlar, alohida ijtimoiy yoki ekologik maslahatchilar) jalb qilish.</p>	<p>a. Kuchga kirish sanasidan boshlab 2 oy ichida, har biri Bankni qoniqtiradigan darajada, va keyinchalik PIU hamda ushbu lavozimni Loyiha amalga oshirilishi davomida saqlab turish.</p> <p>b. E&S bo'yicha shtat ehtiyojlarini Kuchga kirish sanasidan keyin bir yil ichida qayta ko'rib chiqish.</p>	PIU
B	<p>SALOHIYATNI OSHIRISH REJASI/CHORA-TADBIRLARI</p> <p>Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'qitilishi zarur bo'lgan tarmoq vazirliklari vakillari va maqsadli guruhlar ro'yxatini tayyorlash:</p> <ul style="list-style-type: none"> • manfaatdor tomonlarni xaritalash va ular bilan hamkorlik; • ekologik va ijtimoiy baholash hamda boshqaruvning maxsus jihatlarini; • bioxavfsizlik va tibbiy chiqindilarni boshqarish; • jamoat salomatligi va xavfsizligi; • Loyiha bo'yicha ESHS natijalari yuzasidan hisobot berish. 	Loyiha amalga oshirilishi davomida.	PIU
MONITORING VA HISOBOT BERISH			
C	<p>MUNTAMAZAN HISOBOT BERISH</p> <p>Bankka Loyiha bo'yicha ekologik, ijtimoiy, sog'liqni saqlash va xavfsizlik (E&S) ko'rsatkichlari yuzasidan muntazam monitoring hisobotlarini, jumladan, biroq ular bilan cheklanmagan holda, ESCP ijrosi, ESCPga muvofiq talab etiladigan E&S hujjatlarni tayyorlash va amalga oshirish holati, Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasiga muvofiq o'tkazilgan tadbirlar qisqacha bayoni, shikoyat mexanizmi(lar)i faoliyati, shuningdek ekologik va ijtimoiy xatarlarni boshqarish choralari hamda mehnatni boshqarish tartib-taomillarining qo'llanilishi yuzasidan hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish.</p>	<p>Kuchga kirish sanasidan boshlab Loyiha amalga oshirilishi davomida Bankka yarim yillik hisobotlarni taqdim etish. Har bir hisobot tegishli hisobot davri tugaganidan keyin 15 kundan kechiktirmay Bankka taqdim etiladi.</p>	PIU
D	<p>PUDRATCHILARNING OYLIK HISOBOTLARI</p> <p>Pudratchilardan tegishli tender hujjatlari va shartnomalarda belgilangan ko'rsatkichlarga muvofiq E&S natijalari yuzasidan yarim yillik monitoring hisobotlarini taqdim etishni talab qilish va bunday hisobotlarni Bankka yuborish.</p>	<p>Kuchga kirish sanasidan boshlab yarim yillik hisobotlarni taqdim etish va so'rovga ko'ra hisobotni Bankka taqdim qilish.</p>	PIU

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDAT	MAS'UL TUZILMA
E	<p>HODISALAR VA BAXTSIZ VOQEALAR</p> <p>a. Loyiha bilan bog'liq bo'lgan va atrof-muhitga, ta'sir ko'rgan hamjamiyatlarga, jamoatchilikka yoki ishchilarga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatgan yoki ko'rsatishi ehtimoli mavjud bo'lgan har qanday hodisa yoki baxtsiz voqea, jumladan ishchilar yoki jamoatchilikning o'limi yoki jiddiy jarohatlanishi, zo'rvonlik, kamsitish yoki norozilik harakatlari, madaniy meros yoki biologik xilma-xillik resurslariga kutilmagan ta'sirlar, atrof-muhitning ifloslanishi, to'g'on buzilishi, majburiy yoki bolalar mehnati, tegishli tartib-taomillarsiz ko'chirish (majburiy chiqarib yuborish), jinsiy ekspluatatsiya va zo'rvonlik (SEA) yoki jinsiy shilqimlik (SH) haqidagi da'volar yoxud kasalliklarning avj olishi haqida Bankni xabardor qilish. So'rovga ko'ra hodisa yoki baxtsiz voqea to'g'risidagi mavjud tafsilotlarni taqdim etish.</p> <p>b. Hodisa yoki baxtsiz voqeaning bevosita, asosiy va tub sabablarini aniqlash uchun tegishli tekshiruvni tashkil etish. Tuzatuvchi harakatlar rejasini (CAP) tayyorlash, Bank bilan kelishish va amalga oshirish; mazkur rejada hodisa yoki baxtsiz voqea oqibatlarini bartaraf etish hamda uning takrorlanishining oldini olish bo'yicha ko'riladigan chora-tadbirlar va harakatlar belgilanishi lozim.</p>	<p>Hodisa yoki baxtsiz voqea haqida ma'lum bo'lganidan keyin 48 soatdan kechiktirmay Bankni xabardor qilish. So'rovga ko'ra mavjud tafsilotlarni taqdim etish. Boshlang'ich xabarnoma yuborilganidan keyin 10 kundan kechiktirmay tekshiruv hisobotini va Tuzatuvchi harakatlar rejasini Bankka taqdim etish, agar Bank bilan yozma ravishda boshqa muddat kelishilmagan bo'lsa.</p>	PIU
ESS 1: EKOLOGIK VA IJTIMOY XATARLAR HAMDA TA'SIRLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH			
1.1	<p>EKOLOGIK VA IJTIMOY BAHOLASHLAR VA/YOKI REJALAR</p> <p>a. Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasini (ESMP) tayyorlash va amalga oshirish.</p> <p>b. Tegishli amalga oshiruvchi idora tomonidan har bir laboratoriya va/yoki faoliyat uchun batafsil maydonchaga xos ESMPlarni tayyorlash va amalga oshirish.</p>	<p>a. Kuchga kirish sanasidan boshlab 3 oy ichida ESMP loyahasini Bank ko'rib chiqishi uchun taqdim etish; va yakuniy ESMPni oshkor qilish, maslahatlashuvdan o'tkazish, qabul qilish hamda xaridlar yoki dala ishlari bilan bog'liq har qanday faoliyat boshlanishidan oldin amalga oshirish.</p> <p>b. Xaridlar yoki dala ishlari bilan bog'liq har qanday faoliyat boshlanishidan oldin.</p>	PIU Amalga oshiruvchi idora
1.2	<p>PUDRATCHILARNI BOSHQARISH</p> <p>ESCPning tegishli jihatlarini, jumladan, tegishli E&S hujjatlari, Mehnatni boshqarish tartib-taomillari va Xulq-atvor kodeksini xarid hujjatlari hamda pudratchilar va texnik nazorat firmalari bilan tuziladigan shartnomalarning E&S spetsifikatsiyalariga kiritish. Shundan so'ng pudratchilar va nazorat qiluvchi firmalar ushbu talablarni bajarishini, shuningdek ular o'z subpudratchilaridan ham tegishli shartnomalardagi E&S spetsifikatsiyalariga rioya etishni talab qilishini ta'minlash. Pudratchilar/subpudratchilar bilan tuzilgan tegishli shartnomalar nusxalarini Bankka taqdim etish.</p>	<p>Xarid hujjatlari va tegishli shartnomalarni tayyorlash jarayonida.</p> <p>Pudratchilarni Loyiha amalga oshirilishi davomida nazorat qilish. Tegishli shartnomalar nusxalari so'rovga ko'ra Bankka taqdim etiladi.</p>	PIU
1.3	TEXNIK KO'MAK	Loyiha amalga oshirilishi davomida.	PIU

MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDAT	MAS'UL TUZILMA
	Grant doirasidagi konsultatsiyalar, tadqiqotlar (zarur bo'lsa, texnik-iqtisodiy asoslar ham), salohiyatni oshirish, o'qitish va boshqa barcha texnik ko'mak faoliyatlari Bank uchun maqbul bo'lgan va ESSlarga muvofiq texnik topshiriqlar asosida amalga oshirilishini ta'minlash. Shundan so'ng bunday faoliyatlar natijalarini ushbu texnik topshiriqlarga muvofiq tayyorlash va yakunlash.		
ESS 2: MEHNAT VA ISH SHAROITLARI			
2.1	MEHNATNI BOSHQARISH TARTIB-TAOMILLARI Butun Loyiha uchun tatbiq etiladigan Mehnatni boshqarish tartib-taomillarini (LMP) tayyorlash, oshkor qilish, maslahatlashuvdan o'tkazish, qabul qilish va amalga oshirish, jumladan ish sharoitlari, mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik, xulq-atvor kodeksi, ishchilar uchun shikoyat mexanizmi hamda pudratchilar, subpudratchilar va nazorat qiluvchi firmalarga nisbatan qo'llaniladigan talablar (tegishli milliy qonunchilik va ESS2ning boshqa talablarini, masalan, xulq-atvor kodeksini qabul qilish, majburiy mehnat va bolalar mehnatining barcha shakllarining oldini olishni ham o'z ichiga olgan holda) ni belgilash.	Kuchga kirish sanasidan boshlab 2 oy ichida.	PIU
2.2	LOYIHA ISHCHILARI UCHUN SHIKOYAT MEXANIZMI LMPda tavsiflangan va ESS2ga muvofiq bo'lgan Loyiha ishchilari uchun shikoyat mexanizmini tashkil etish, yuritish va undan foydalanishni ta'minlash.	Shikoyat mexanizmi loyiha ishchilari jalb etilishidan oldin ishga tushiriladi va Loyiha amalga oshirilishi davomida saqlab turiladi.	PIU
2.3	MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI (OHS) CHORALARI Amaldagi milliy qonunchilik, ESS2 va subloyiha bo'yicha maxsus ESMP hamda LMPda ko'rsatilgan yo'riqnomalarga muvofiq mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash va xavfsizlik (OHS) choralari amalga oshirish.	Loyiha amalga oshirilishi davomida	PIU
ESS 3: RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA IFLOSLANISHNING OLDINI OLISH HAMDA BOSHQARISH			
3.1	Loyiha uchun tayyorlangan ESMP tarkibida ESS3ga muvofiq xavfli va xavfli bo'lmagan chiqindilarni, jumladan elektron chiqindilarni boshqarish uchun Chiqindilarni boshqarish rejasini (WMP) tayyorlash va amalga oshirish.	1.1 (a va b)-harakatlar bo'yicha ESMPni qabul qilish va amalga oshirish uchun belgilangan muddat bilan bir xil.	PIU
ESS 4: JAMOAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGI			

4.1	<p>a. Xaridlar yoki dala ishlari bilan bog'liq har qanday faoliyat boshlanishidan oldin loyiha faoliyatlaridan kelib chiqadigan hamjamiyatga oid aniq xatarlar va ta'sirlarni, jumladan loyiha ishchilarining xulq-atvori, ishchi kuchi oqimi xatarlari, favqulodda vaziyatlarga javob choralarini baholash va boshqarish hamda yumshatish choralarini ESMPga kiritish, keyinchalik ularni maydonchaga xos ESMPlarga ham integratsiya qilish.</p> <p>b. ESMP tarkibida xavf-xatarlarni baholashni (RHA) o'tkazish. RHA natijalariga asoslanib, tegishli mahalliy hokimiyat organlari va ta'sir ko'rgan hamjamiyat bilan muvofiqlashtirilgan holda, ESS2 doirasida loyiha ishchilari uchun joriy etilgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, tayyorgarlik ko'rish va javob berish choralarini inobatga olgan holda, ESMP tarkibida Favqulodda vaziyatlarga javob berish rejasini (ERP) tayyorlash.</p> <p>c. Loyiha amalga oshirish bosqichida tibbiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, laboratoriya xodimlari va aholi o'rtasida zoonoz kasalliklar yuqishi bo'yicha xabardorlikni oshirish.</p>	<p>a. Xaridlar yoki dala ishlari bilan bog'liq har qanday faoliyat boshlanishidan oldin.</p> <p>b. Xaridlar yoki dala ishlari bilan bog'liq har qanday faoliyat boshlanishidan oldin.</p> <p>c. Loyiha amalga oshirilishi davomida.</p>	PIU
MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDAT	MAS'UL TUZILMA
ESS 5: YER OLISH, YERDAN FOYDALANISHGA CHEKLOVLAR VA MAJBURIY KO'CHIRISH			
5.1	ESS5 hozirgi vaqtda dolzarb emas.	N/A	N/A
ESS 6: BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH VA TIRIK TABIIY RESURSLARNI BARQAROR BOSHQARISH			
6.1	ESMP tarkibiga yovvoyi tabiatga sezgir protokollarni, jumladan sezgir davrlarda (masalan, uya qurish, bolalash davrida) ekologik sezgir zonalarda transport vositalari/qayiqlarning harakatini cheklash choralarini kiritish. ESMP shuningdek dala xodimlari uchun o'quv tadbirlarini o'z ichiga olishi va mahalliy muhofaza etiladigan hududlar ma'muriyatlari bilan muvofiqlashtirilishi lozim.	1.1 (a va b)-harakatlar bo'yicha ESMPni qabul qilish va amalga oshirish uchun belgilangan muddat bilan bir xil.	PIU
ESS 7: MAHALLIY XALQLAR / SAXARADAN JANUBDA TARIXAN YETARLICHA XIZMAT KO'RSATILMAGAN AN'ANAVIY MAHALLIY HAMJAMIYATLAR			
7.1	ESS7 dolzarb emas, chunki ushbu standartning odatiy ta'rifi ko'ra O'zbekistonda IP/SSAHUTLC mavjud emas.	N/A	N/A
ESS 8: MADANIY MEROS			
8.1	ESS8 dolzarb emas, chunki Loyiha moddiy va nomoddiy madaniy merosga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hech qanday jismoniy investitsiyalarni moliyalashtirmaydi. Xuddi shuningdek, Loyiha madaniy merosga ta'sir ko'rsatadigan texnik-iqtisodiy asoslar va loyihalash tadqiqotlarini ham moliyalashtirmaydi.	N/A	N/A
ESS 9: MOLIYAVIY VOSITACHILAR			
9.1	ESS9 dolzarb emas, chunki Loyiha moliyaviy vositachilik faoliyatini moliyalashtirmaydi va/yoki o'z ichiga olmaydi.	N/A	N/A

ESS 10: MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK VA AXBOROTNI OSHKOR QILISH			
10.1	MANFAATDOR TOMONLAR BILAN HAMKORLIK REJASI ESS10ga muvofiq ravishda Loyiha uchun Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik rejasini (SEP) tayyorlash, oshkor qilish va maslahatlashuvdan o'tkazish; ushbu rejada, jumladan, manfaatdor tomonlarga o'z vaqtida, dolzarb, tushunarli va qulay axborot taqdim etish hamda ular bilan manipulyatsiya, aralashuv, majburlash, kamsitish va qo'rqitishdan xoli, madaniy jihatdan mos tarzda maslahatlashuvlar o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutilishi lozim.	SEP Kuchga kirish sanasiga qadar oshkor qilinadi va keyinchalik Loyiha amalga oshirilishi davomida amalga oshiriladi.	PIU
10.2	LOYIHA BO'YICHA SHIKOYAT MEXANIZMI Loyiha bilan bog'liq tashvishlar va shikoyatlarni qabul qilish hamda ularni tezkor va samarali hal etishga ko'maklashish uchun shaffof, madaniy jihatdan mos va Loyihadan ta'sir ko'rgan barcha tomonlar uchun oson foydalaniladigan, bepul va qasos xavfsiz, jumladan anonim tarzda yuborilgan murojaatlarni ham qamrab oluvchi, ESS10ga muvofiq bo'lgan shikoyat mexanizmini tashkil etish, e'lon qilish, yuritish va undan foydalanishni ta'minlash.	Shikoyat mexanizmi Kuchga kirish sanasidan keyin ikki oydan kechiktirmay tashkil etiladi va keyinchalik Loyiha amalga oshirilishi davomida saqlab turiladi hamda ishlatiladi.	PIU
MUHIM CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		MUDDAT	MAS'UL TUZILMA
	Shikoyat mexanizmi SEA/SH bo'yicha shikoyatlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ularni hal etishga ko'maklashish imkoniyatiga ega bo'lishi, shu jumladan jabrlanuvchilarni tegishli gender zo'rvonligi xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga xavfsiz, maxfiy va jabrlanuvchi manfaatlariga yo'naltirilgan tarzda yo'naltirishni ta'minlashi lozim.	GRM bo'yicha yillik tahliliy hisobotni tayyorlash va oshkor qilish.	
AMALGA OSHIRISHGA TAYYORLIK KO'RSATKICHLARI			
Quyidagi harakatlar amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rsatkichlari hisoblanadi: Tashkiliy tuzilma (A-harakat) Salohiyatni oshirish (B) Muntazam hisobot berish (C-harakat) Loyiha bo'yicha shikoyat mexanizmi (10.2-harakat)			